

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15127254>

3-SINFDA SIFATNING MA'NO TURLARINI O'RGANISH

Yuldasheva Sh. –TDPU, dotsent

Andaqulova Ch. TDPU, 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinfda sifatning o'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati, 3-sinf "Ona tili" darsligida sifatning ma'no turlari yuzasidan berilgan nazariy ma'lumotlar va mashqlar tahlil qilinadi, ularni o'rganish metodikasi yoritiladi. Maqolada sifatning ma'no turlarini o'rganishda sensor, taqqoslash va ta'limiy o'yinlar metodidan foydalanish yoritiladi.

Kalit so'zlar. *Boshlang'ich sinf, sifat so'z turkumi, amaliy o'rganish, nazariy o'rganish, sifatning ma'no turlari, so'z boyligi, vizual, sensor, ta'limiy o'yinlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение прилагательных в формировании речевых компетенций учащихся начальной школы, теоретические сведения и упражнения, представленные в учебнике «Родной язык» для 3-го класса по типам значений прилагательных, а также методика их изучения. В статье рассматривается использование сенсорного, сравнительного и игрового методов при изучении значения имен прилагательных.

Ключевые слова. *Начальная школа, имя прилагательное, практическое обучение, теоретическое обучение, типы значений прилагательных, словарный запас, визуальный, сенсорный, обучающие игры.*

ANNOTATION

The article analyzes the meaning of adjectives in the formation of speech competencies of primary school students, theoretical information and exercises presented in the textbook "Native Language" for the 3rd grade on the types of adjective meanings, as well as the methodology for studying them. The article discusses the use of sensory, comparative and game methods in studying the meaning of adjectives.

Mustaqil davlatimiz oldida turgan eng muhim va dalzarb vazifalardan biri yoshlarning ta'lim tarbiyasidir. Bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, hikumatimiz tomonidan qator qaror va farmonlar chiqarilgan. Bu hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal qilishda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili darslarining o'ziga xos o'rni bor.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi turli vaziyatlarda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish ekanligi ko'p bora ta'kidlanadi. Demak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish; tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda sifat so'z turkumi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu so'z turkumimini o'rganish natijasida o'quvchilar narsa, shaxslar haqida aniq va to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar, lug'atlari boyiydi, nutqda to'g'ri qo'llashni o'rganadilar. Metodik adabiyotlarda sifat so'z turkumoni o'rganishning uch bosqichi ko'rsatiladi.¹ 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish (1-, 2-sinf); 2) sifat haqida tushuncha berish (3-sinf); 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatning yozilishini o'zlashtirish (4-sinf)

1-bosqich sifat bilan dastlabki tanishtirish (sifatni amaliy o'rganish). Bu bosqich 1-2-sinflarga to'g'ri keladi. Bu sinfda o'quvchilar sifatning leksik ma'nosini kuzatadilar, sifatga *qanday?*, *qanaqa?* so'rog'ini berish, shu so'roqlarga javob bo'la oladigan so'zlarni topishga, nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

¹ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: "Moliya-iqtisod", 2009

2-bosqich 3-sinfga to'g'ri keladi. Bu sinfda sifat atamasi kiritiladi va ta'rif beriladi. „Sifat“ tushunchasini shakllantirish o'quvchilaning „belgisi“ degan umumlashtirilgan kategoriyaning o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl, hajm, xil-xususiyat bildiradigan so'zlar guruhlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi.¹ Shu nuqtai nazardan 3-sinf darsligida „sifatlarning ma'no turlari“ mavzusi kiritilgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, avvalgi darsliklarda bu mavzu alohida o'rganilmagan.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda sifatlarning ma'no turlarini ko'rsatishda xilma-xilliklar mavjud.² 3-sinf darsligida ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga tayanib: „Sifatlar shaxs va narsaning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil -xususiyatini bildiradi“ ta'rif berilgan³. Demak, berilgan ta'rifda shaxs va narsaning beshta belgisi ko'rsatib o'tiladi. Nazariy ma'lumotlar yuzasidan jami 9ta mashq berilgan. Mashqlar tarkibida 55ta sifatga oid so'zlar bor. Bulardan ba'zi so'zlar takror qo'llangan: qizil, chiroyli, shirin, mazali, semiz so'zlari 2marta, keng so'zi 3marta qo'llangan. Mashqlar tarkibida berilgan sifatlarni ma'no turlari bo'yicha tahlili quyidagicha ko'rinishda bo'ldi:

- rang bildiruvchi sifatlar: sariq, moviy, ko'k, qizil, qora, ko'm-ko'k, qop-qora
- maza-ta'm bildiruvchi sifatlar: shirin, achchiq, nordon, sho'r, mazasiz, mazali
- shakl bildiruvchi sifatlar: yumaloq, to'rtburchak.
- hajm bildiruvchi sifatlar: katta, keng, baland, o'rta, ulkan, tor, past,
- xil-xususiyatni bildiruvchi sifatlar: chiroyli, o'tkir, sayroqi, ko'rkam, viqorli, mayin, qudratli, toza, qalin, musaffo, momiq, tiniq, suyuq, xushchaqchaq, bilimli, a'lochi, suvsiz, suvli, semiz,

Darslikdagi mashqlarning tahlili bu sinf darsligida ko'proq xil-xususiyat va hajm-shakl bildiruvchi sifatlar berilganini ko'rsatdi. Shuningdek, nazariy ma'lumotda hid

¹Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: „Moliya-iqtisod“, 2009 259-bet

² Hamrayev M., Muxamedova D., G'ulomova X., Shodmonqulova D., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. -T.: Moliya-iqtisod, 2007; Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили –Т, «Ўзбекистон» 1992

³ Ona tili. 3-qism. 3-sinf uchun darslik –T.: „Novda“ 2023 73-bet

bildiruvchi sifatlar ham borligi aytib o'tilmagan, lekin mashqlarda xushbo'y, muattar, badbo'y kabi ayrim hid bildiruvchi sifatlar uchraydi. Bu o'rinda o'qituvchi hid bildiruvchi sifatlar ham borligini, ular narsalarning hidini bildirishini va qanday so'rog'iga javob bo'lishini aytib o'rishi lozim.

Darslikda nazariy bilimlar yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish maqsadida berilgan mashqlar mazmun va shakl jihatdan xilma –xil bo'lib, o'quvchilarning diqqatini jalb qila oladi va ularni qiziqib bajaradilar. Ammo 99-mashq, 100-mashq shartlarini o'ylab ko'rish lozim.

Sifatlarning ma'no turlarini o'rgatishda ko'proq so'zlarning lug'viy ma'nolariga diqqat qaratilishi talab etiladi. Bunda boshqa metodlar bilan bir qatorda sensor usulidan (sezgi organlari orqali o'rganishi) va taqqoslash, ta'limiy o'yin usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ko'rish orqali sinf xonasidagi jihozlarning

belgilarini yoki rasmni kuzatish orqali unda tasvirlangan shaxs va narsalarning belgilarini topish mashqlarini tashkil qilish mumkin. Paypaslab ko'rish orqali esa narsalar-ning silliq yoki g'adir-budurligini aniqlash imkoni mavjud. Ta'limiy o'yinlardan berilgan sifatlarga mos otlar topish tashkil etilishi mumkin. Masalan, o'qituvchi shirin, mazali sifatlarini aytadi. O'quvchilar shu sifatlarga mos ovqat, qovun otlarini topadilar. Yoki aksincha, o'qituvchi ot so'z turkumiga oid so'zni aytadi o'quvchilar unga mos sifatlarning bir ma'no turiga oid so'zlar topadilar: bino (katta, kichik), yo'l (keng, tor)

Darslik o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham asosiy didaktik vosita hisoblanadi. Unda beriladigan har bir ma'lumot, har bir mashq o'quvchining yoshi va saviyasiga mos bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan 3-sinf "Ona tili" darsligiga sifatning ma'no turlari mavzusining kiritilishi ayni muddao bo'lgan. Amaliyot davrida olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, sifatning ma'no turlarini o'rganishda avval o'quvchilarga o'zlashtirish oson bo'lgan rang, maza, hid va shakl bildiruvchi sifatlar berilsa, keyin xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temirova K. Nutqiy kompetensiyaning turlari, mazmun-mohiyati va elementlari International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey <https://econferencezone.org> Feb. 20th 2023 12
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: "Moliya-iqtisod", 2009
3. Hamrayev M., Muxamedova D., G'ulomova X., Shodmonqulova D., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. -T.: Moliya-iqtisod, 2007
4. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили – Т, «Ўзбекистон» 1992
5. Ona tili. 3-qism. 3-sinf uchun darslik –T.: "Novda" 2023 73-bet